

SHARAFUDDIN ALI YAZDIY “ZAFARNOMA” ASARI “MUQADDIMA” SIDA TEMURIYLAR SHAJARASI

Madrahimova Muhayyo Sultonboyevna

O’zbekiston Milliy Universiteti

Tarix fakulteti 2-bosqich magistranti

Tel 97 777 66 26

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Zafarnoma” asari “Muqaddima”sida buyuk sarkarda Amir Temur shajarasi bayon etilgan. Markaziy Osiyoning Temuriylar davridagi ma’muriy-hududiy o’zgarishlar, etnik-hududiy holati haqida ma’lumotlar berilgan. Amir Temurning ajdodlari haqida yozilgan manbalar ko’rib chiqiladi.

Amir Temur sultanatidagi aholining o’ziga xos migratsiyasi ularning joylashuvlari haqida ham ma’lumotlar berib o’tilgan bo’lib, u o’zbek xalqi tarixini yanada boyitishda muhim hisoblanadi.

Kalit so’zlar: etnos, shajara, etnik-hududiy, xalq, ajdod, sultanat, migratsiya, qo’ng’iroq, qipchoq, qavchin, qiyot, makrit, nayman, uyg’ur, jaloyir, mo’g’ul, o’yrot, “Muizz al-ansob”, “Jome at-tavorix”, “Zubdat at-tavorix”, “Tarixi arba-ulus”, “Shajarai-turk”.

Hozirgi vaqtida ilm-fanda Amir Temur ajdodlari haqida yozilgan ishlar qisqa eslatmalar va ilmiy maqolalardan iborat. Ular orasida A.Z.V.To’g’on, J.E.Vuds va A.A.Semyonov maqolalarini ko’rsatishimiz mumkin.

Jon Vudsning “Temuriylar sulolasi” kitobi (Blyumington, 1990). Amir Temurning naslu nasabi va avlodini o’rganishda alohida ahamiyat kasb etadi Mazkur asarda Amir Temurning Qochuli bahodirdan to uning ulug’ otasi Tarag’ay bahodirgacha bo’lgan ajdodi, hazrati Sohibqironning xotinlari va farzandlarining ismlari, tug’ulgan yoki vafot etgan yillari ko’rsatilgan. Mazkur shajarani ma’lum darajada noma’lum muallif (Hofizi Abru deb ham taxmin qilinadi) tarafidan tuzilgan “Muizz al-ansob fi shajarat ul-atrok” (boshqa bir nomi, Muizz ul-ansob fi shajarat-i salotini mo’g’ul”) ning zarur izohlar va qaydlar bilan ingliz tiliga qilingan tarjimasi deyish mumkin. “Muizz ul-ansob”da Chingizzon va Amir Temurning shajarasi keltirilgan.[1.3B].

Ma’lumki, Amir Temur ajdodlari shajarasiga oid ma’lumotlar qandaydir manbalarga tayanib yozilgandir.Ushbu mavzuga oid manbalarning bir xili turkiy-mo’g’ul yozma ma’lumotlaridan iborat bo’lsa, boshqa bir qismini arab alifbosida yozilgan asarlar tashkil qiladi.

XV asrda turkiy sultonlar shajarasiga Amir Temur ajdodlari ham ilova qilingan asarlardan biri “Muizz al-ansob” asaridir. Uning muallifi Temuriylar saroyi tarixchilaridan biri bo’lsa kerak, deb taxmin qilinadi. “Muizz al-ansob”da Rashid ad-Dinning “Jome at-tavorix” asaridagi turkiy sultonlar haqida yozilganlariga Amir Temur ajdodlari va Temuriylar xonadoni to’g’risida ma’lumotlar ilova qilinadi

Amir Temur ajdodlari haqida ma'lumot beruvchi yana bir manba, bu Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asaridir. Uning asarida Amir Temur ajdodlari quyidagicha ta'riflanadi:

Sultonlar sultoni Amir Temur ko'ragon ibn amir Tarag'ay-no'yon ibn amir Barqul ibn amir Sug'u-Sichon (Chechan) ibn amir Erdamchi –no'yon ibn amir Qachulay-no'yon (Qochuli) ibn Tumanayxon (Tumanaxon) ibn Boysung'urxon ibn Qayduxon ibn Dutummanixon ibn Bo'qoxon ibn Bo'dancharxon (Bo'zunjarxon) ibn Alonquvo, uning nasabi quyosh nuridandir.

Hofizi Abruning yozishicha, shajaraning Amir Sohibqiron tarmog'i Chingizzxon ajdodlaridan Tumanayxon (Tumanaxon) farzandlaridan boshlab ajraladi.

Amir Temur ajdodlari shajarasining bitik ya'ni toshga o'yib yozilgan yodgorlik shaklisidagi ham bizgacha yetib kelgan. Bu Samarcanddagi mashhur Go'ri-amir maqbarasidagi Amir Temurning qosh tosh (nefrit) ga bitilgan ostki va marmarga o'yilgan ustki qabr toshlaridagi yozuvlardir. Ularning arabcha matni va rus tiliga tarjimasini taniqli sharqshunos A.A.Semyonov ilmiy maqola tarzida e'lon qildi (1948 yil).

Bitikdagi shajaraning oxirgi jumlesi, ya'ni Ali nomi bilan bog'liq rivoyat Hofizi Abruning yuqorida qayd etilgan “Zubdat at-tavorix” asaridagi shajarada ham, shuningdek, Ali Yazdiy “Zafarnoma”si matnida ham yo'q, demak u toshga bitik o'yilgan paytda qo'shimcha qilingan. Shu bilan birga bitikni tuzishda yuqorida sanab o'tilgan yozma manbalardan foydalanylGANI aniq.

Tarixchi Hofizi Abru ham Amir Temurning ajdodlari haqida so'z yuritar ekan , ular ulug' amirlar va nomador sultonlar edi, deb ta'kidlaydi.[2.3-7.B].

“Muqaddima”dagi ma'lumotlar keyinchalik ham ushu mavzuda asarlar yozishga turki bo'ldi. Jumladan, Ulug'bekning “Tarixi arba' ulus” (“To'rt ulus tarixi”) asari to'la to'kis ana shu “Muqaddima”ga tayanib yozilgan. Abulg'oziy Baxodirxon (1603 – 1664 yillar) “Shajarai turk” asarida: Sharafuddin Yazdiy “Zafarnoma”sining “Muqaddima”sinda aytib o'turur” [3.17.B].deb ana shu manbadan foydalanganini aniq ravshan ta'kidlab o'tadi.

Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarining “Muqaddima”qismida berilgan quyidagi tarjima parchada Amir Temur ajdodlari mavzuiga daxldor lavhalargina olindi, qiqartirilgan matnlar izohlab o'tildi. Tarjimon izohlari va qo'shimchalari quyuq harflar bilan yoki qavs ichida berildi. “Zafarnoma”dagi Amir Temur ajdodlari haqidagi ma'lumotlar o'zbek kitobxonlari uchun Temuriylar davri yozma merosini, umuman turkiy xalqlar tarixini o'rganishda foydadan holi bo'lmas degan umiddamiz. Fors tilidan o'zbek tiliga qilingan ushu tarjima Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan nodir nusxalardan biri asosida amalga oshirildi.

Ibrohim Sulton “Zafarnoma” ni yozishga farmon berganida Sohibqironning jang-jadallarini o'qigan kishi, tabiiyki, uning nasl-nasabi bilan ham qiziqadi, degan xulosaga kelgan bo'lishi mumkin. Zero, “Zafarnoma” ga yozilgan kattagina kirish qismi - “Muqaddima” bunga isbotdir. Unda Ali Yazdiy shag'zoda Ibrohim Sulton

ushbu tarixda Amir Temur nasabi to Odam-Atogacha yetkazilishini talab qilganligini ta'kidlab o'tadi. Shu sababdan, "Muqaddima" da maqsad bir muncha kengroq qo'yilgan bo'lib, ancha uzoq tarixiy davr qamrab olingan. Ali Yazdiy ushbu kirish qismida Amir Temur turk sultonlari oilasidan va ulug' xoqonlar xonadonidan ekanligini hisobga olib, u so'z bayoni ni turkiy sultonlar shajarasiga qaratganini ham eslatib o'tgan. Shu munosabat bilan Chingizxonning siyosiy maydonga kelishi, O'rta Osiyonni zabit etishi, Chig'atoy ulusi hukmdorlari ham tavsiflab o'tigan.

Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarining "Muqaddima" qismida berilgan ma'lumotga ko'ra, Chig'atoy ulusida xonlik taxtida o'tirgan shaxslar jami o'ttiz bittani tashkil qilgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarining "Muqaddima" qismida qadimda va Chingizxon zamonida hozirgi Mongoliya va unga yondosh g'arbiy viloyatlarda turkiy elatlarning jaloyir, makrit, nayman, uyg'ur, o'yrot, (qalmoq), qavchin, qiyot, qipchoq, qo'ng'iroq urug' qabilalari yashagani qayd etilgan. "Zafarnoma"ning asosiy qismida berilgan tarixiy kechinmalarda mazkur qabilalar turli siyosiy jarayonlar ta'sirida g'arbiy o'lkalarga tarqalgani ma'lum bo'ladi. Demak, xulosa qiladigan bo'lsak Amir Temur salatanatida aholining o'ziga xos migratsiyasi, ya'ni aholining bir joydan boshqa joyga ko'chirilishi ham bo'lganligini ko'rsatadi.

O'sha davrdagi migratsiyada ko'proq chetdan Markaziy Osiyoga, aniqrog'i, Mavarounnahrga aholi ko'chirib kelingani kuzatiladi. Muhim tomonini ko'radigan bo'lsak, Mavarounnahrga aholining kelishi bemalol bo'lgan bir vaqtida, bu yerdan chiqib ketish oliy hukmdor Amir Temurning bevosita ruxsati bilangina mumkin edi.

Klavixo bu haqda shunday yozadi: "Daryodan o'tishda esa qayiqlar xizmat qiladi va odamlarni bir qirg'oqdan ikkinchi qirg'oqqa qayiqlarda olib o'tadilar. Biror kishiga, hatto qo'shni mamlakatlardan bo'lgan taqdirda ham, Samarkant podshohligiga daryo orqali bir qirg'oqdan boshqa bir qirg'oqqa o'tishga ruxsat etilmagan; faqat maxsus yorliq olgandan keyingina, qayerga borishi haqida yorlig'i bo'lgandagina (Jayhundan) o'tishi mumkin. Boshqa joylardan Samarkante podshohligiga o'tish uchun esa, hech qanday yorliq talab etilmaydi".[4.122B].

Buyuk tarixchi Fazlulloh Rashidididdin (1247-1318) o'zining ajoyib salnomasida o'zbeklar tarkibiga kirgan ayrim turk va mo'g'ul qabilalari to'g'risida muhim tarixiy – etnografik ma'lumotlarni bizga yetkazgan. Uning Markaziy Osiyo, Eron va qo'shni mamlakatlar tarixi va etnografiyasi haqidagi "Jome ut-tavorix" nomli kitobi juda qimmatli manba bo'lganligi tufayli ko'p olimlar tomonidan sharhlangan, tahlil qilib to'ldirilgan, ortiqcha tafsilotlar qisqartirilgan. Shunday olimlardan biri Ohangaron bo'yidagi Banokat shahridan chiqqan tarixchi va geograf Faxriddin Abu Sulaymon Banokatiydir.

Qudratli imperiya tashkil qilgan Amir Temur va uning vorislari hukmronlik qilgan davrda Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston hududi yirik madaniyat markaziga aylandi va boshqa mamlakatlar bilan aloqalar har tomonlama kuchaydi. Sohibqiron tomonidan yaratilgan "Temur tuzuklari" ham noyob manba hisoblanadi. O'sha davrda yashagan va saroy tarixchisi bo'lib, temuriylarga xizmat qilgan Hofizi

Abru “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog’i”) nomli yirik tarixiy –geografik asar yozgan. Unda ham Movarounnahrga oid ba’zi etnografik ma’lumotlar keltirilgan.[5.20.B].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIII – XV asrlarda Markaziy Osiyo, jumladan Movarounnahrda jiddiy etnomadaniy jarayonlar sodir bo’lgan. Mo’g’ullar hukmronligining dastlabki yarim asr hukmronligi davrida aholi o’z etnik tarkibini tiklash jarayoni og’ir kechgan. XIII asrning ikkinchi yarmidan ayrim etnik guruxlarning sharqdan Movarounnahr va unga tutash o’lkalarga ko’chib kelib o’troqlashuv jarayoni tezlashadi. Mahalliy aholiga nisbatan kam sonli bo’lib ko’chib kelgan ko’chmanchi turkiy qavmlar o’troq mahalliy aholi bilan yaqinlashishi va ularning madaniyatini qabul qilishlari kuzatiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o’rganishda Temur va temuriylar davrini mufassal o’rganmay turib bu mintaqaning tarixiga baho berish mumkin emas. Shuni aniq aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Temur va temuriylar davri mamlakatning siyosiy-iijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi jarayonida ulkan ijobjiy burilishlar davri bo’lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Турғун Файзиев. Темурийлар шажараси. Тошкент “Ёзувчи” НАШРИЁТИ – “Хазина” 1995. 3б.
2. Амир Темур аждодлари.(Шарафуддин Али Яздий Зафарнома асаридан терма таржима) Форс тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳлар муаллифи Омонулла Бўриев.Тошкент. 1992.3-7 бетлар.
3. Абулғозий. Шажараи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ. Муниров, Қ. Махмудов Т.,1992. 17-б.
4. Омонулло Бўриев Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. Тошкент 2017. 1226.
5. А. Х. Дониёров. О.Бўриев А. А. Аширов “ Марказий Осиё халклари этнографияси, этногенези ва этник тарихи” Toshkent. “Yangi nashr” 2011. 20 б.